

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O‘ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI**

**III kurs talabasi
Fayziyeva Nargizaning**

**“Komil xorazmiyning badiiy mahorati”
mavzusidagi**

РЕФЕРАТИ

(2012-2013 o‘quv yili)

Ilmiy rahbar:

**Safarova H.
filologiya fanlari
nomzodi, dotsent**

Buxoro – 2013

MAVZU: KOMIL XORAZMIYNING BADIY MAHORATI

REJA:

Kirish.

I BOB. Komil Xorazmiy hayoti va ijodiga oid chizgilar

II BOB. Komil Xorazmiyning lirik merosining mundarijasi, mavzular olami

III BOB. Shoir she'riyatida ana'na va ijodiylik

Xulosa. Komil Xorazmiy merosining ahamiyati

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

KIRISH

Mavzuning o'rganilishi va dolzarbligi. Otashzabon shoir Komil hayotlik chog'idayoq xalqning e'tiboriga tushgan va ijodiga bo'lgan qiziqish paydo bo'la boshlagan hamda zamondagi shoirlari tomonidan tan olingan edi. Shuning uchun ham shu davrda tuzilgan ko'plab qo'lyozma va toshbosma bayoz-majmualarda shoir ijodidan namunalar kiritildi. Shuningdek, XIX asr o'zbek adabiyoti va tarixida yirik manba sanalmish Ogahiyning "Gulshani davlat"(1855-1856), Muhammad Yusuf Bayoniyning "Shajarai Xorazmshohiy"(1911-1913), Ahmad Tabibiyning "Majmuat-ush-shuaro" (1908), H.Laffasiyning «Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimai hollari» (1920) kabi asarlarda Komil Xorazmiy o'z ijodiy faoliyati bilan fazlu kamolotga erishgan shoir, tiyran aql hamda fikrda sobit davlat va jamoat arbobi sifatida yuqori baholangan.

Shayx Sulaymon Buxoriy "Lug'ati chig'atoyi va turki usmoniy" (1880-1881) asarida ayrim so'zlar izohi uchun "mashohir shuaro"larning she'rlaridan misollar olgan. Munis, Ogahiylar qatorida Komil Xorazmiy she'rlaridan misollar keltirishi shoirning hayotlik chog'idayoq mashhur bo'lganligidan dalolatdir.

Ingliz va rus tarixchilari tomonidan Komil shahsiga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, Sankt-Peterburgda chop etilgan "1873 yilgi Xiva yurishi" nomli ruscha rasmiy manbada, F.M.Lobosevichning "1873 yilgi Xiva yurishining bayoni" nomli asarida, Mak-Gahanning ingliz tilidan tarjima qilingan "Oksusdagi harbiy harakatlar va Xivaning taslim bo'lishi" kabi kitoblarda shoir faoliyatiga mahsus to'htalangan. Qolaversa, N.Ostroumov muharrirlik qilgan "Turkiston viloyatining gazeti" (1891-1894 yillardagi) sahifalarida bir qancha she'rlari bosilib turdi. Komil Xorazmiyning musiqa sohasidagi xizmatlari B. Rahimov va M.YUsuf Devonzodalarning "Xorazm musiqiy tarixchisi" (Moskva, 1925) kitobida, keyinroq esa V.Belyaevning "O'zbekiston muzika asboblari" ("Muzo'kalno'e instrumento' Uzbekistana, M. 1933) asarlarida alohida e'tirof etilgan.

Shoir Komilning hayoti va ijodini ommalashtirish va ilmiy tadqiq etish, asosan, 1945 yildan boshlandi. 1945 yilda nashr etilgan O.Sharafiddinovning "O'zbek adabiyoti tarixi" hrestomatiyasida, 1947 yilda chop etilgan "O'zbek

poeziyasi antologiyasi” da keng kitobhonlar ommasiga shoir ijodi taqdim etildi. 1947 yilda adabiyotshunos M.Yunusov Komil ijodiga bag`ishlangan nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi, 1958 yilda shoirning hayoti va ijodini yorituvchi “Komil Xorazmiy” nomli kitobini nashr ettirdi. 1961 yilda shoirning “Tanlangan asarlari” (nashrga tayyorlovchi R.Majidiy), 1975 yil shoir “Devon”i nashrdan chiqdi.

Komil Xorazmiy ijodi maktab va oliy o`quv yurtlarida o`rganila boshlandi. G`.Karimovning “O`zbek adabiyoti tarixi” (III kitob) darsligida shoir Komil hayoti va ijodiga alohida fasl ajratilgan. Suuningdek, “O`zbek adabiyoti tarixi besh tomlik” (1980) ning 5-tomida K.Xorazmiyning hayoti va ijodiy merosining tahlili uchun 32 sahifa ajratilgan. Bulardan tashqari adabiyotshunoslar A.Hayitmetov, V.Zohidov, A.Qayumov, N.Qobilov, N.Jumaho`ja va I.Adizovalarning shoirning turli jihatlarini ochuvchi bir necha maqolalari e`lon qilingan. Ko`rinadiki, Komil Xorazmiy milliy adabiyotimizda mustahkam o`rin topdi.

Biz adabiyotshunosligimizda amalga oshirilgan ushbu ishlarga tayangan holda Komil Xorazmiy lirik merosi, unda badiiy mahorat muammolarini keng miqiyosda o`rganishga harakat qildik. Bu esa tanlagan mavzumizning dolzarbligini ta`minlaydi.

Ishning maqsad va vazifalari: Komil - shoir, xattot, bastakor, musiqashunos, tarjimon, davlat arbobi. Uning ibratli faoliyati zamondoshlari va keyingi davr ilm ahlining e`tirofiga sazovor bo`lgan. Ko`plab tadqiqotchilar bu ulkan ijodkor va siyosatdon faoliyatiga qiziqish bilan qaraganlar. Bu qiziqish esa bugungi kunga qadar ham susaygani yo`q. Mazkur kurs ishi ham Komil ijodini o`rganishda kichkina bir tadqiqot sifatida yaratilmoqda. Unday ko`zlangan maqsad va vazifalar esa quyidagicha belgilandi:

- Komil Xorazmiy adabiy merosi va uning o`zbek adabiyotshunosligida o`rganilishi;
- Adibning davlat siyosatchisi sifatidagi faoliyatini nizardan o`tkazish;
- Shoir lirik merosining mavzular olamini tahlil qilish;
- Komil Xorazmiyning musiqashunoslik faoliyatiga baho berish;
- Lirik merosida an`ana va badiiy mahorat masalasi va boshqalar.

KOMIL XORAZMIY HAYOTI VA IJODIGA OID CHIZGILAR

Muhammadniyoz Komil 1825 yilda Xivada ziyoli honadonida tug`ildi. Uning otasi Abdulla Oxund madrasa mudarrisi bo`lib, o`z davrining peshqadamlaridan edi. Shoirning asli ismi Muhammadniyoz bo`lib, ba`zi manbalarda Niyozmuhammad, Polvonniyoz deb yuritilgan. Xorazmliklar qisqartirib “Matniyoz” deb chaqirganlar. Komil (etuk, mukammal) Xorazmiy esa nisba tahallusdir. Pahlavon laqabi esa uning jang maydonlaridagi jasorati evaziga berilgan. Muhammad Yusuf Bayoniyning “Shajarai Xorazmshohiy” asarida Komil navqiron yoshlaridagi jasorati shunday lavhalarda beriladi: “Bir kun Ko`rganli bir yamutkim, Qorabaloq laqabi bila mulaqqab erdi, bag`oyat zabardast va mergan edi. Bir miqdor yamutga bosh bo`lub, Muhammadmurod devonbegining sangariga kelib urush boshladi, lashkarga ondin ko`p dastburdlar (ziyon-zahmatlar-T.M.)etdi, bir kun Muhammadmurod devonbegi dedi: “Har kishi ushbu Qorabaloqni otini ursa, besh yuz tillo va o`zini ursa, ming tillo berurman”. Pahlavonniyoz yuz boshi bu so`zni eshitib, bir qo`hna yof (ariq-T.M.)ning ichi bila buqub yurub maydonning bir tarafida bir qo`hna devor bor edi, oning panohiga bordi, ul vaqtda qaroboloq maydonga ot solib keldi. Pahlavonniyoz onga bir o`q otdi. O`q otiga tegib yiqildi. Qoraboloq otdin judl bo`lub bildikim, ul devorning orqasida kishi bordur, ul erda bir necha to`p yulg`un bor erdi, oning panohiga kirib turdi. Ul vaqtda Pahlavonniyoz boshig`a kiygan nimani miltuqning uchig`a ildurub, ohista yuqoriga ko`tardi. Ul vaqtda yamutlar bildilarkim, endi ul mergan (Komil nazarda tutilyapdi-T.M) Qoraboloqning ustiga borib oni qatl etar. Filhol, hujum etib ot soldilar va Qoraboloqni olib qayttilar”¹.

Ko`rinadiki, hech kim bas kela olmaydigan zabardast pahlavon Qoraboloqqa Muhammadniyoz Komil bas keldi, uni chekinishiga majbur qildi. Jangdagi bunday jasoratdan keyin Muhammadniyoz Komil adabiy siymosini bezaguvchi “Pahlavon” nomi bilan mashhur bo`ldi.

¹ М.Ю.Баёний. Шажараи хоразмшоҳий. Мерос. Т. Камалак; 1991. 200-б.

Komil ibtidoiy ta'limni eski maktabda, yuqori tahsilni Xiva madrasalarida oldi. Ammo oilaviy sharoit, ya'ni otasining bevaqt vafoti tufayli o'qishni biroz to'xtatishga majbur bo'ladi, keyinchalik oila tirikchiligini ma'lum izga solib olgach, yana tahsilni davom ettiradi.

Madrasa tahsilida u arab va fors tillarini mukammal o'rganib, bu tildagi adabiyotlarni, mumtozlarimiz ijodini chuqur o'rgandi. Keyinchalik o'zi "Komil" tahallusi bilan she'rlar yoza boshladi. Ogahiydek ulug' shoirning "Gulshani davlat" kitobida nomining zikr etilishi ijod olamida tezda shuhrat qozonganidan darak beradi.

Komil Xorazmiy yahshi hattot ham edi. U bu san'atni yuqori darajada egalladi, hatto Muhammad Panoh, Hudoybergan muhrikon devon, Muhammad SHarif G'arro kabi shuhratbardor shogirdlar etishtirdi. Uning o'g'li Muhammad Rasul ham hattotlik ilmini o'rgandi, yahshigina hattot bo'ldi. "Mirzo" tahallusi bilan she'rlar yozib, "Devon" tuzdi. Komil shoir sifatida el orasida erta shuhrat qozondi. Uning dovrug'ini eshitgan o'sha davrdagi Xiva honi Sayid Muhammadhon uni saroyga xizmatga chaqiradi. Moddiy va ma'naviy suyanchig'i bo'lmagan shoir uchun bu taklif qo'l keladi va u saroyda mirzalik lavozimida ishlay boshlaydi. Saroy muhitini yahshi tushungan Komil tiyraklik bilan ish olib boradi. Sayyid Muhammadning vafotidan keyin tahtga uning o'g'li Muhammad Rahimxon Soniy (1865) o'tiradi. Hukmfarmon Muhammad Rahimxon II uni tez orada mirzaboshilik (mirzalarga boshliq) vazifasiga tayinlaydi.

Bu lavozim Komilga shoirlikdan tashqari davlat siyosatchisi mas'uliyatini ham yuklagan edi, ayni shu lavozimdalik chog'ida davlatning ahvoli tang, ya'ni Xiva Rossiya vassaliga aylanish arafasida edi. 1873 yilning ohirlarida devonbegilik lavozimiga ko'tariladi. Bu vazifa esa bugungi bosh vazir vazifasiga to'g'ri keladi. Demak, Komil zimmasidagi yuk juda og'ir edi. U har taraflama aql va idrok bilan ish tutishi lozim edi. Bu vaqtda Xiva ruslar tomonidan egallangan, yurt erkinligi deyarli qo'ldan ketgan edi. Turkiston general gubernatori fon Kaufman boshchiligidagi rus qo'shinining honlik qo'shiniga bergan zarbalari hamda to'kilgan behuda qonlarni ko'rgan Muhammadniyoz Komil shu suronli

vaziyatdan kelib chiqib ish ko'rishni lozim topadi, ya'ni huquq va erklari cheklangan honlikni shu holatida saqlab qolishni mutlaqo yo'q bo'lib ketishdan ko'ra ma'qulroq yo'l deb biladi va natijada uning taklifi bilan 1873 yilning 12 avgustida Xiva yaqinidagi Gandimiyon qishlog'ida Rusiya bilan Xiva honligi o'rtasida sulh tuzildi. Bu voqea tarixda "Gandimiyon shartnomasi" nomini oldi. Sulhparvar va tadbirkor devonbegi Komil shu yo'l bilan o'z xalqini behuda qirg'indan ozroq muddatga bo'lsa-da saqlab qoladi. Komilning siyosiy arbob sifatida tutgan bunday oqilona tadbirlari ingliz va rus siyosatdonlarini-da e'tiborini tortadi. Chunonchi, Mak-Ga Han 1873 yil Xiva xonligi voqealari haqidagi ingliz tilidagi mahsus kitobida Komil Xorazmiyni sulhparvar va dono tadbirkor sifatida e'tirof etadi. F.I.Lobosevich bu janglarning bevosita ishtirokchisi bo'lganligi uchun ham bu voqeadan ta'sirlanib "Matniyozning bu vaqtda o'z vataniga ko'rsatgan xizmati beqiyos katta bo'ldi"deb yozadi. Komil devonbegi vazifasidaligida Xiva madaniy hayotining rivoji uchun ham ko'p hayrli ishlarni qilgan 1874 yili chet ellardan tipografiya uskunalarini keltirtirib, O'rta Osiyoda ilk bora toshbosma yo'lidagi kitob nashr etishni yo'lga qo'ydi. Bir so'z bilan aytganda, eng yirik ma'naviy tadbirga tashkilotchilik qildi, albatta bunga Xiva xoni Feruz moddiy va ma'naviy rahnamo edi.

Anglashiladiki, Komilning butun sa'y-harakatlari yurt tinchligi, osoyishtaligi yo'lida xonlikning Rusiya imperiyasi bilan munosabatlarini yahshilash, xalqning madaniy hayotini rivojlantirish uchun edi. Afsuski, uning bunday hayrli amallari qadrlanmadi, aksincha, asta-sekin barham topib, uning o'rnini hasad, tahqir va kamsitish egallaydi. Xiva xoni Muhammad Rahimxon II Feruz sobiq devonbegi Matmurod Kaluga surgunidan ozod bo'lib qaytgach, "Shajarai Xorazmshohiy"da alohida e'tirof etilganidek, "mirzaboshini (Komil Xorazmiyni – T.M) burung'i mirzaboshlik mansabida barqaror etib, Muhammadmurod devonbegiga devonbegilik mansabin" qaytarib beradi. Bu voqea Muhammadmurodga qanchalik qanot bergan bo'lsa, Komilga shunchalik og'ir bo'ladi. Taqdirning bu kabi ko'p iztiroblari uning sog'ligiga ham ta'sir qiladi. Laffasiy tazkirasida umrining ohirida ko'zi ojizlanib qolgani haqida shunday ma'lumot bor: "Komil parisxonhol

bo'lganidin g'amu hasratlar tortib, natijada ikki ko'zig'a qaro suv kelib, ojiz bo'lib qoladur... Xeva tabiblarig'a bir necha muolaja qildursa-da, hech bir foyda bermay, balki avvalgidan yamonlashadi. Shul sababli, Komil xondin ruhsat olib Toshkondga borib ko'z do'htirlarga muolaja qildiradur. Ammo ko'zining og'rig'i kundin-kun shiddatlig' bo'lg'onin bayon qilib xong'a ariza beradur. Xon dog'i ancha tasalliyi hotir bo'lg'udek hech bir marhamat iltifotlar qilmaydur. Ammo mirzaboshlig' mansabin o'g'li Muhammad Rasulboyg'a marhamat qiladur. Komil juda ham dard chekib, shikasthotirlikda asholi hastalig'ga duchor bo'lub, uch kun muddat yostuqqa bosh qo'yub, 1315 (1897-98) yil, it yilida 72 yoshida yuz ming nadomatlar bilan ohirotg'a safar qiladur".

Tarixiy manbalarda qayd etilganidek, shoir Komil Xorazmiy 1897 yilda, 72 yoshida vafot etadi.

Shoir Komil Xorazmiyning hayot mundarijasini kuzatsak, ma'lumotlar uni Moskva va Peterburg shaharlarida 2 marta: birinchisi 1873, ikkinchisi 1883 yilda Feruz boshchiligidagi 17 kishilik hay'at tarkibi bilan borganligi, 1891, 1896-97 yillarda Toshkentda bo'lganligini ko'rsatadi. Demak, shoir sayohatlarda juda kam bo'lgan. U o'zining butun hayotini xalq xizmatiga, badiiy ijodga va san'atga bahshida qilgan.

II BOB

KOMIL XORAZMIYNING LIRIK MEROSINING MUNDARIJASI, MAVZULAR OLAMI

Komil Xorazmiy ana shunday otashzabon shoir va fidoiy san'atkordir.

Sohibidevon Komil Xorazmiy qoldirgan adabiy merosning asosiy qismini g'azallar, muhammas, musaddas, musabba', murabba', muammo, ruboiy, qasida va masnaviylar tashkil etadi. Shoir lirikasi o'z mazmuni, umumiy ruhi va uslubi jihatidan o'ziga hoski, unda hayot va insoniy kechinmalar ob'ektiv va real kuylanadi.

Komil Xorazmiy ijodiyotining asosiy qismini ISHQiy lirika tashkil qiladi. Shoir hijron qiynoqlari, ma'shuqa vasfi, u bilan bog'liq kechinmalarni o'ziga hos

tarzda mahorat bilan tasvirlaydiki, o`quvchi ko`z oldida chin muhabbat manzarasi paydo bo`ladi. Shoir bir ishqiy manzumasida:

Ul quyosh meni vahkim, asru zor etib ketti,

Zarradek dilu jonim beqaror etib ketti

deya quyoshga mengzagan, quyosh deb atagan sevgilisini vasliga zor, uning hajrida dilu jonu beqaror ekanligidan kuyunsa, yana bir ishqiy she`rida yorning tavsifini, uning baland sarv qomatiyu, o`ynoqi fusunkor ko`zlarini erkalabgina jozibalik misralarda ifodalaydiki, ko`z oldiningizda malaksiymo bir pari suratlanadi:

Qomatim ham aylagan ul sarvi sarafrozlar,

Ko`zlarim nam aylagan ul chashmi afsunsozlar.

Lirik qahramonimizga mahbubaning yoqimli harakatlariyu nozu karashmalarigacha yoqadi va shuning izhorini ishqqa to`la iliq sartlarda beradi:

Bani shaydo edon ul mahvashi tannozlardurlar,

Niyozim qilmayin manzuri masti nozlardurlar.

Oshiq mutlaqo asir bo`lgach, Laylini sevgan Majnun kabi ishq tuzog`iga tushadi, sahrolar kezib sargardon, ma`shuqa ishq o`tida otashparast bo`ladi:

Domi muhabbatingga to poybast bo`ldum,

Layli yo`lida go`yo Majnun mast bo`ldum,

Tun-kun urub toku po`, sahronishast bo`ldum,

Bu dasht aro quyundek bepou dast bo`ldum,

Ishqing o`tig`a go`yo otashparast bo`ldum.

Komil etuk so`z san`atkorlari ergashib kamol topdi. Ayniqsa, Navoiy va Fuzuliy ijodidan ozuqalandi, ulardan ilhom oldi. She`rlaridagi salaflari bilan mavzu va ohang uyg`unligi boisi ham shundan.

Chunonchi, Fuzuliyning

Parishon holing o`ldum, so`rmading holi parishonim,

G`amingdin darda dushdum, qilmading tadbiri darmonim,

Ne dersan ro`zigorim bo`ylami kechsun, go`zal honim,

Go`zim, jonim, afandim, sevdigim davlatli sultonim

deb boshlanuvchi mashhur murabba'siga monand misralarni Komil ijodida uchratamiz:

O'tib ko'b oyu yillar, so'rmading holi parishonim,
Ijobing shiddatidin og'zima etmishdurur jonim,
Ne din bir demading yillarda, ey kamtar sana honim,
Chu Yusuf Misri izzat masnadida mohi Kan'onim.

Yoki Navoiyning do'stlik, unga sadoqatda bo'lishlik, bevafo do'stlikning iztiroblarini aks ettiruvchi "Bo'lmangiz" radifli g'azaliga Komilning bog'langan muhammas tahmisi:

Zinhor el ihtiloji birla hurram bo'lmangiz,
Mehnatni har dam fuzulu rohati kam bo'lmangiz,
Men kabi bori nadomatdin qadi ham bo'lmangiz,
Do'stlar, odam eliga yoru hamdam bo'lmangiz,
Yor ila hamdam demaykim, oshno ham bo'lmangiz.

Bu misralarda mavzu va ohang uyg'unligi tabiiy, ammo Navoiy satrlariga Komil misralari shunday mos tushganki, shoir ijodida bunday navoiyona ruhning ufurishi uning ulkan she'riyat sohibi bo'lib etilganidan nishona. Yana bir misol:

Sen husn shohidursen, men kamtarin g'uloming,
Gar zulm, var karam qil,-bordur mango muborak.
O'lsam dog'i yo'lungdin bosh olmog'um, nigoro,
Mendin vafo munosib, sendin jafo muborak.

So'z san'atining nafis bu namunasi shoh va shoir Boburning:

Sen gulsenu, men faqir bulbuldurmen,
Sen shu'lasenu, ul shu'laga kuldurmen.
Nisbat yo'q deb ijtinob aylamakim,
Shohmen elga, vale senga quldurmen

barchaga mashhur ruboiysini eslatadi.

Komil Xorazmiy ijodida real voqelikda ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy hodisalarga to'g'ri (ob'ektiv) yondoshib mulohaza yuritadi. Ayniqsa, saroy muhitidagi nosog' kayfiyat shoirni chuqur iztirobga soladi. Siyosat borasidagi

tadbirlari, fidoiyligiga qaramay devonbegilikdan chetlashtirilishi shoirga og'ir botadi, bu hol ruhiy azob bo'lib vujudini kemira boshladi. Bunday nohaq munosabatga javoban shoir "Aylama" radifli g'azalida nazmiy norozilik bildirdi. Shuningdek, shoir saroydagi hamda jamiyatdagi illatlarni fosh hajv xarakteridagi "Fuzalo", "Juhalo" she'rlari bilan ham maydonga chiqdi. "Fuzalo" shunday boshlanadi:

Yutubon bu zamonda qon fuzalo,
Kulfat o'qigadur nishon fuzalo.

"Juhalo"da esa pok insonlarga turli ig'voyu-illatlari bilan ozor berayotgan ichi qora razil kimsalarni ochiqdan-ochiq qoralab, ularning portretini shunday tasvirlaydi:

No'sh etib, rish va mayin, etmay ulus dodig'a,
Bilmadilar dame oyini adolat juhalo.

Shoirning ijtimoiy mazmundagi she'rlaridan birida "Ochg'ali otlandi to sultoni jamiqbol suv" deya Muhammad Rahimxonning ariq qazdirayotganini obodonchilikka qo'shgan hissa sifatida baholaydi.

Komilning ijtimoiy-siyosiy she'rlari orasida "Dar bayoni ta'rif va tavsifi Toshkand" qasidasi e'tiborlidir. Negaki, u o'zbek tilida bitilgan Toshkent haqidagi ilk qasida edi. Qasida o'sha davridayoq "Turkiston viloyati gazetasi"da bosilib chiqdi. Hajman 100 misrani tashkil etuvchi bu qasidada shoir Toshkent safari taassurotlari bayon etiladi. She'rda an'anaviy lirik boshlanma ("nasib")dan keyin sayohat to'g'risida habar qisqa beriladi-da, to'g'ridan-to'g'ri Toshkentning ta'rif-tavsifiga o'tiladi. Toshkentning go'zal bog'lari, zilol ariqlari, suvlari, uning "ayyomi hazon"i (kuzi) shunday tasvirlanadi:

Bo'ldi mehmon joyimiz haq lutfidin, bir, bog'kim,
Mevazoru, lolazoru, nahlzori Toshkand.

Komil Xorazmiy nafaqat shoir, balki yahshigina musiqashunos va bastakor ham edi. O'zi soz ham chalardi. Bu san'atni yoshligidan egallagandi. U Rossiya va Toshkent safarlarida ham u erlarning musiqasi bilan qiziqadi. Xorazm musiqiy

merosini yozib olishda jonbozlik ko'rsatadi. Xalq musiqasini yozib olish maqsadida tanbur asbobini tanlaydi. "Tanbur nota"si shundan mashhur bo'lgan. Komil "Rost" maqominigina yozib ulguradi, holos. Uning bu hayrli ishini o'g'li Muhammad Rasul davom ettiradi.

Komil Xorazmiy bastakor sifatida "Murabbai Komil", "Peshravi Komil"ni yaratdi. Bu kuylar "Rost" maqomiga bog'lab yaratildi va notaga ko'chirildi. Komil musiqiy merosining qimmatini shundaki, u yangi kuylar yaratish bilan birga Evropa notasini o'zbek musiqasiga tatbiq qildi, Xorazm notasini joriy etdi.

Komil Xorazmiyning ijodiy faoliyati serqirra. Uning faoliyatida tarjimonlik ham muhim o'rin tutadi. XVIII asr fors-tojik adabiyoti namunalaridan Mumtoz tahallusli Barhudor bin Mahmud Turkman Farohiyning "Mahbub-ul-qulub" (xalq orasida "Mahfil oro" nomi bilan mashhur) asarini o'zbek tiliga tarjima qildi. Fahridin Ali Sayfiyning "Latoyifut-tavoyif" (XVI) asarini forschadan o'zbekchaga o'girdi. Tarjimon Komil asarni qayta ishlab, bir qismini yangilaydi. Prof. Sh. Yusupovning qaydicha, 452 hikoyatdan 345 tasini keltirib, eskirganlarini tushirib qoldiradi. SHu tariqa kitob "Latoyifuz-zaroyif" (Zarif latifalar) nomi bilan tarjima qilinadi.

Komil Xorazmiyning ziddiyatlarga boy hayoti va mahsuldor ijodi XIX asr o'zbek adabiyotini yorqin sahifasini tashkil etadi.

III BOB

SHOIR SHE'RIYATIDA ANA'NA VA IJODIYLIK

Sharqda devon tuzish ma'lum an'anaga ega edi. Jumladan, she'rlar dastlab janrlar bo'yicha (g'azal, ruboiy, tuyuq kabi), so'ng esa ularning har biri ichki alifbo tartibi (qaysi harf bilan tugashiga qarab) bilan joylashtirilgan. She'rlarning, chunonchi g'azallarning g'oya va yo'nalishi, mavzu-mazmuni ham belgilab qo'yilgan edi. G'azal aksariyat ishq haqida yoziladi. Ishaq esa ikki mazmunni: «ishqi ilohiy», «ishqi majoziy»ni anglatadi. Birinchisi Olloh ishq, Xudoni sevis, ikkinchisi erdagi go'zalga oshiqlik edi. Har ikkisinin ifoda vositalari, obraz timsollarida o'hshashlik bor. Qolaversa, tasavvuf ta'limoti bo'yicha, borliq, inson

yoki go`zal yor ham Haq jamolining jilvasi. Demak, unga muhabbat Oллоhga bo`lgan ishq darajasiga etishi kerak.

Shoirlar o`z salohiyatlarini ko`proq mana shu doirada namo-yish etar edilar. Komil g`azallarida ham bu mavzu keng o`rin egallaydi.

«Ayn»u «shin»u «qof»inga to bo`ldi ko`nglum muhtalo

«Dol»u «ro»u «dol»u hajringdin dame erman judo,-

deb boshlanadi shoirning bir g`azali. YA`ni «ayn», «shin», «qof»— «ishq»inga ko`nglum muhtalo bo`lganidan buyon «dol», «ro», «dol»— «dard»u hijroningdin bir nafas (dame) ham holi emasmen, demoqda shoir. She`r boshdan ohirigacha shu tarzda harflar o`yini bilan davom etadi. Bunday usulni sharq she`r ilmida kitobat san`ati deganlar. Mana, yana bir bayt:

Yuzung mushafi sharhi o`lg`ay necha –

Kitobu kitobu kitobu kitob.

Mushaf Qur`ondir. Shoir yor yuzini muqaddas Qur`on sahifasiga tashbih etyapti. U sharh etilgudek bo`lsa, necha-necha kitob bo`ladi, demoqchi. Mazmunda ilohiy ishq jilva qilyapti. Muayyan so`zning muayyan o`rindagi takrori ham san`at. Bunday usulni mu-karrar san`ati deydilar. U kerakli fikrni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shoir yor ta`rifida an`ana izidan borib, chiroyli tashbihlar, manzaralar yaratdi:

Jonbahsh la`ling ustida ul holi hindularmudur,

Yo chashmai hayvon uza zog`i siyahmo`larmudur.

La`l - qizil qimmatbaho tosh, yoqut. Uni shoirlar yorning labiga qiyos qilganlar. Bu la`l oshiqqa jon bag`ishlaydi. Shuning uchun u jonbahsh. Qora holni «holi hindu» deganlar. Shoir yorning labi ustidagi qora holini ta`rif etmoqda. Hindu qo`riqchi ma`nosida ham keladi. La`lni (qimmatbaho narsani) qo`riqlash uchun qo`yilgan posbon ma`nosi ham bor. «Chashmai hayvon» — hayot suvi. Bir ichgan kishi aslo o`lmaydigan obihayot. Zog`i siyahmo` - qora qarg`a. Lab va uning ustidagi hol obihayot va uning bo`yidagi qora qarg`aga tashbih etilyapti.

Shoir yor siymosi—timsolini beryapti. Jumladan, lab va holini ta`rif etyapti. Ta`rif boshdan ohirigacha tashbih (o`hshatish) asosiga qurilgan, «mudur»

qo`shimchasi esa unga so`roq ma`nosini beradi, «yo» ayiruv bog`lovchisi so`roqqa yangi ma`no yuklaydi. Shoir go`yo galga soladi: undaymikin, bundaymikin, — deydilardir bo`ladi. Ya`ni: jon bag`ishlovchi labing ustidagi qora holmidir yoki obihayot bo`yidagi qora qarg`ami? Bunday usulni tajohuli orif (bilib bilmaslikka olish) deydilar. Shoir ikki fikrni o`rtaga qo`yib, bittasini aniqlashtirmoqchidek tuyuladi. Lekin aslida ikkala fikrni ham tasdiqlatib oladi. Tajohuli orif she`riyatda keng tarqalgan poetik san`atlardan. «Ahhob» («Do`stlar») radifli g`azalida umrning g`animatligi, do`stu yorning qadriga etmoq kerakligi haqida gap ketadi. She`r shunday boshlanadi:

Tugunlar bir-birovning suhbatini mug`tanam, ahhob,
Ki barcha bo`lg`umiz navbat bilan bir-bir adam, ahhob.

She`rni o`qir ekanmiz, buyuk Navoiyning:

Ki bir kun bo`lurmiz adam, ey rafiq,
G`animat tutoli bu dam, ey rafiq, -

degan satrlari yodga tushadi. She`rni o`qiy boshlaymiz. Xo`sh, nima qilmoq kerak, degan hayol bizni bezovta qila boshlaydi. Komil «Oftob» radifli she`rida bu fikrni davom ettirib, to`g`ridan-to`g`ri shohga murojaat qiladi:

Ey shoh, g`arra bo`lma jahon tahtu johiga,
Gar bo`lsa afsaring qamaru gavhar-oftob.

(Ey shoh, boshdagi tojing oyu, uning gavhari -oftob bo`lganida ham bu dunyoda tahtu boyligishta bino qo`yma, mag`rurlanma.) Xo`sh, nima qilmoq kerak? Yo`l bitta. Har bir narsadan ibrat olmoq zarur. Umrni qadrlamoq, yahshilik yo`lida sarf etmoq kerak. Do`stlikning qadriga etmoq lozim. Qani buni eshitadigan odam? Qani ajdodlar tarixidan hulosa chiqaradigan avlodlar?

Hubbi dunyo baski, Komil, kar qilibdur xalqni,
Hech kim olmas quloqg`a durri shahvori hadis.

(Ey Komil, mol-dunyo hirsini xalqni shu qadar kar kilibdurki, hech kishi hadis atalgan shahvor durni qulog`iga olmaydi.) Ko`rin-yaptiki, Komil tasavvuf bilan bir kdtorda ahloq, pand-nasihat masalalariga ham alohida diqqat qiladi.

Komil lirikasida muhabbat mavzui ayricha o`rin tutadi. Komil bu mavzuda g`azal, murabba', muhammas, mustazod, masnaviy, musabba' va boshqa shakllarda ko`plab asarlar yaratgan.

Shoirning «Turkiston viloyatining gazetisi»da 1891 yil 6 sentyabrda e`lon qilingan dastlabki uch she`ri shu mavzudagi asarlardan iborat ekani xarakterlidir. Sharq mumtoz she`riyatining eng yahshi an`analari ruhida kamol topgan bu ulkan qalam sohibining muhabbat lirikasida, bir tomondan Navoiy, Fuzuliy, Munis, Ogahiy kabi azamat shoirlar yaratgan she`riy timsollardan mahorat bilan foydalanilsa, ikkinchi tomondan, ularda Komil qalamigagina hos bo`lgan noyob timsollarni, xilma-xil badiiy kashfiyotlarni ko`ramiz.

She`riy asar sohibining mahorati, odatda, o`zidan oldingi yirik san`atkorlar kashf etgan timsollarning ular nigohidan pinhon qolgan yangi jihatlarini ochishdan iborat bo`lsa, balo-g`at cho`qqisiga ko`tarilgan chog`larida ular o`sha oldingi yirik san`atkorlardan meros qolgan timsollarni inkor etish, ularga aks tarafdin yondoshish orqali ham o`quvchi qalbini rom etadilar. Navoiyning «Bo`lmangiz» radifli mashhur g`azaliga tah-mis bog`lagan Komil har bandda ulug` shoir g`azaliga shunday mis-ralarni zargarona payvand qiladiki, natijada ular bitta qalam sohibi ijodining mahsulidek yangraydi. Bu hol tahmis bog`lagan shoirning ulkan mahoratidan, o`z salafi egallagan yuksak cho`qqiga ko`tarila olganidan dalolatdir. Mana o`sha bandlar:

Olam ahlidin vafo osorini qilmang gumon,
Naqd umrim sarf etib qildim alarni imtihon,
Uzlat istab ahli olamdin qoching boricha jon,
Oshnolig` aylabon o`z joningizg`a har zamon,
Boisi yuz ming balou mehnatu g`am bo`lmangiz.
Garchi Komil bo`ldi furqatdin alil, ey, ahdi vasl,
Hajr o`tig`a tushti andog`kim Halil, ey, ahli vasl,
Lek topti yor vaslig`a dalil, ey, ahli vasl,
Gar Navoiy hajr aro bo`ldi zalil, ey, ahli vasl,
Endi navbat sizgadur, muncha muazzam bo`lmangiz.

Komilning:

Ohkim har kimg`a molu jonimi qildim fido,
Qildilar yahshilig`img`a ming yamonlig` borho, —

matla`i bilan boshlanadigan bir g`azali buyuk Navoiyning:

Kimga jonimni fido qildimki, jonim qasdig`a
Har tarafdin yuz tuman tiyg`i jafosin ko`rmadim, -

baytidagi inson qalbi qa`riga yashiringan alamli tuyg`ularni cheksiz iztirob bilan ifodalashda buyuk ustozga munosib shogird ekanligini ko`rsatadi.

Fuzuliyga tatabbu tarzida bitilgan bir g`azalida Komil:

Sunbul erurmu sarvg`a chirmashib o`sgan bog` aro,
Yohud chirmashgan qadingga shabrang gisularmudur?
Hayroni diydoring bo`lub turmish qoshingda xo`blar,
Yo`q ersa ko`yg`on o`tru mashshota ko`zgularmudur? -

misralarini bitarkan, mahbuba qaddini qurshab turgan o`rim sochlarni bog`da sarvga chirmashib o`sgan sunbulga, yor husniga hayron bo`lib turgan go`zallarni uning husnini yanada jilolantirish uchun jam bo`lgan mashshotalarga o`xshatadi va Fuzuliyga munosib o`ziga hos noyob tashbihlar yaratadi.

Komilning betakror san`atkorlik mahorati uning kuylar bastalanib, yuz yildan ortiq muddat ichida eng mashhur honandalar tomonidan honish etilib kelinayotgan g`azal va muhammaslarida yana ham yaqqol namoyon bo`ladi. «Qo`qon ushshoqi»ga solinib, tinglovchilar orasida, ayniqsa, keng shuhrat qozongan:

Yuzung firoqidin, ey rashki mehri rahshonim,
Qorong`udir kecha-kunduz bu baytul ahzonim, -

matla`li g`azali ham go`zal she`riy kashfiyotlar yaratilganligi bilan ajralib turadi.

Bo`lur ko`zimg`a gul - o`t, sarv - o`q chaman ichra,
Nedinkim qaddu yuzingdur meni gulistonim.

Yuzung quyoshidin ayru gar o`lsa yuz hurshid,
Munavvar o`lmoqi mumkin emas shabistonim, -

baytlarining birinchisida mumtoz she`riyatdagi an`anaviy tim-sollar: ya`ni mahbuba ruhsorining gulga, qaddining shamshodga tashbih etilganligi Komilni

aslo qanoatlantirmaydi. Oshiq -muallifning idrokicha, chamanda gulu sarv bo'lsayu mahbuba bo'lmasa, bu chaman chaman emas: u gulni o't-o'lan, sarv og'ochini esa o'q sifatida qabul etadi, chunki mahbubaning ruhsoriyu qaddi bo'lsagina chaman chaman bo'la oladi. Ikkinchi bayt ham mumtoz she'riyatdagi ko'rkam timsollardan birini, ya'ni mahbuba chehrasining olamni munavvar etuvchi quyoshga tashbih etilishini keskin rad qilishi bilan e'tiborga loyiq. Shoir fikricha, qorong'u kechani yoritishga qodir yagona quyosh - yor yuzining quyoshi bo'lmasa, olamni nurga to'ldiruvchi yuzta quyosh baravar osmonga chiqsa ham oshiqning zulmat kechasini yoritishga qodir emas. Bu Komil she'riyati uchungina emas, balki butun mumtoz she'riyatimiz uchun ham yangicha talqindir.

Xorazmlik buyuk honanda Komiljon Otaniyozovdan boshlab yuzlarcha hofizlarning eng sevimli honishlaridan biri Komil qalamiga mansub «Kimni sevar yorisan» nomli sho'hshang qo'shiqdir. Undagi:

Qaysi falak burjini mehri pur anvorisan,
Qaysi sadaf durjini gavhari shahvorisan,
Qaysi Xo'tan ohusi, nofai totorisan,
Qaysi chamanzorni lolavu gulnorisan,
So'yla mang'a, ey sanam, kimni sevar yorisan?
Qomatinga bandadur bog` aro sarvi ravon,
La'l labing rashkidin g'uncha erur bag`ri qon,
Chunki chaman sahnida bo'lsa yuzung gulfishon,
Nolasin aylar fuzun bulbuli behonumon,
So'yla mang'a, ey sanam, kimni sevar yorisan?
Ayshu nashot istabon g'amga duchor o'lmag'on,
Mehringa dil bastayu zoru nazor o'lmag'on,
La'li labing shahvdg'a bormu humor o'lmag'on,
Dahr aro yo`qtur sang'a oshiqi zor o'lmag'on,
So'yla mang'a, ey sanam, kimni sevar yorisan? -

bandlarida, bir tomondan, mumtoz she'riyat an'analarini rad etish orqali yangi timsollar yaratilsa, ikkinchi tomondan, unda: «Dahr aro yo`qtur sang`a oshiqi zor o`lmag`on» singari o`ta ehtirosli va original misralar uchraydi.

Xullas, Komil o`z mahoratining yuksakligi jihatidan ham ko`p asrlik mumtoz she'riyatimizda salmoqli o`rin tutadi. Komil devonidan ruboiy, mustazod, murabba', muhammas, musabba', muammo kabi poetik janrlar ham o`rin olgan. Muhammaslari Navoiy, Munis, Ogahiy, Feruz, Rojiiy g`azallariga bitilgan. Shoir aruz vaznining imkoniyatlaridan keng foydalandi. CHunonchi, unda boshqa shoirlarda uchramaydigan uzun vazn - bahri taviilni ham ko`ramiz.

XULOSA

Komil Xorazmiy faoliyati ko'p qirrali. Komil Xorazmiy nafaqat shoir, balki yahshigina musiqashunos va bastakor ham edi. O'zi soz ham chalardi. Bu san'atni yoshligidan egallagandi. U Rossiya va Toshkent safarlarida ham u erlarning musiqasi bilan qiziqadi. Xorazm musiqiy merosini yozib olishda jonbozlik ko'rsatadi. Xalq musiqasini yozib olish maqsadida tanbur asbobini tanlaydi. "Tanbur nota"si shundan mashhur bo'lgan. Komil "Rost" maqominigina yozib ulguradi, holos. Uning bu hayrli ishini o'g'li Muhammad Rasul davom ettiradi.

Komil Xorazmiy bastakor sifatida "Murabbai Komil", "Peshravi Komil"ni yaratdi. Bu kuylar "Rost" maqomiga bog'lab yaratildi va notaga ko'chirildi. Komil musiqiy merosining qimmatini shundaki, u yangi kuylar yaratish bilan birga Evropa notasini o'zbek musiqasiga tatbiq qildi, Xorazm notasini joriy etdi.

Komil Xorazmiyning ijodiy faoliyati serqirra. Uning faoliyatida tarjimonlik ham muhim o'rin tutadi. XVIII asr fors-tojik adabiyoti namunalaridan Mumtoz tahallusli Barhudor bin Mahmud Turkman Farohiyning "Mahbub-ul-qulub" (xalq orasida "Mahfil oro" nomi bilan mashhur) asarini o'zbek tiliga tarjima qildi. Fahridin Ali Sayfiyning "Latoyifut-tavoyif" (XVI) asarini forschadan o'zbekchaga o'girdi. Tarjimon Komil asarni qayta ishlab, bir qismini yangilaydi. Prof. Sh. Yusupovning qaydicha, 452 hikoyatdan 345 tasini keltirib, eskirganlarini tushirib qoldiradi. Shu tariqa kitob "Latoyifuz-zaroyif" (Zarif latifalar) nomi bilan tarjima qilinadi.

Komil Xorazmiyning ziddiyatlarga boy hayoti va mahsuldor ijodi XIX asr o'zbek adabiyotini yorqin sahifasini tashkil etadi. Shoir qoldirgan lirik meros o'zining rang-barangligi, badiiy jihatdan etukligi bilan munosib o'rniga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. –T.: “Ma'naviyat”, 2008,- 174 bet.
2. Karimov I. Adabiyotga e'tibor, ma'naviyaga e'tibor. “O'zbek adabiyoti va san'ati”, 2009 yil 3 iyul.
3. Barkamol avlod orzusi (“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni amalga oshirish borasidagi mulohazalar). –T.: “Sharq” nashriyot-matbaa kontserni, 1998-184 b.
4. Ta'lim to'g'risida” O'zbekiston Respublikasining qonuni. Oliy ta'lim me'yoriy hujjatlar to'plami. –T.: “Sharq” nashriyot – matbaa aktsiadorlik kompaniya bosh tahririyati, 2001- 3-15- betlar .
5. Milliy uyg'oniy davri o'zbek adabiyoti. Hammualliflar: Begali Qosimov, Sharif Yusupov, Ulug'bek Dolimov, Shuhrat Rizaev, Sunnat Ahmedov. Toshkent: “Ma'naviyat”. 2004. -105-145-betlar.
6. Ayyomiy P. «O't chaqnagan satrlar». –T.: 1963.
7. Mo'minov V. «O'zbek demokratik adabiyotida lirika». –T.: 1979.
8. Murodov A. «O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan». –T.: 1979 .
9. Qosimov B., Dolimov U. «Ma'rifat darg'alari». T.: 1990 yil.
10. Qosimov B. Milliy uyg'onish. “Ma'naviyat”. T.: 2002.
11. K.Xorazmiy. «Devon». –T.: 1975 .
12. Yunusov M. «Komil Xorazmiy» –T.: 1960.
13. Yusupov Sh. «Komil Xorazmiy xaqida yangi ma'lumot». O'TA. 1968 yil, 5 – son.